

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13207404>

**Gulruh Kenjaboy Mirzo qizi**

*ToshDO‘TAU I-kurs doktoranti*

**Kalit so'zlar:** *farz, fiqh, vudu, aqida, vajah, hasan, g`usl.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Siroj ul-muslimin” asarida keltirilgan tahorat masalasi yoritiladi. Baytlar sharhlanib, fiqhiy mo‘tabar manbalar bilan solishtiriladi.*

Alisher Navoiy o‘zbek shoiri, o‘zbek she‘riyati mulkining sultoni ekanligi hech kimga sir emas. Biroq, uning asarlariga yanada teranroq nazar bilan qaralsa, Alisher Navoiyning buyuk islom olimi ekanligi ham namoyon bo‘ladi. Zero, uning barcha asarlarining asl manbasi Qur‘oni karim, sunnat, islom tasavvufi va islom hikmatidir.

Hazrati Navoiy butun hayoti va ijodini Qur‘on va hadisi shariflarda kelgan hukmlar asosiga qurgan komil musulmonning ibratli namunasidir. Shoir hamisha Qur‘on tilovat qilishni va unga amal qilishni komillikning asosiy sharti deb tushunadi. Shu boisdan ham Alisher Navoiy Qur‘oni karim ta‘sirida bir nechta asarlar yozgan. Ulardan biri “Siroj ul-muslimin” asarida shariat ahkamlari, islom asoslarini nazmiy usulda bayon qiladi<sup>8</sup>.

“Siroj ul-muslimin” masnaviy shaklida yozilgan bo‘lib, 197 baytdan iborat. Asar aruzning hazaji musaddasi mahzuf (mafoiylun mafoiylun fauvlun) vaznida yozilgan. “Siroj ul-muslimin” hamd va na‘t, 24 bob va xotimadan tashkil topgan.

Hazrat Navoiy, avvalo, Allohga hamd va Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamga salot va salomlarini yo‘llagach, mazkur kitob nazmining sababi bayoniga o‘tadi. Dastavval sulton Husayn Boyqaroga cheksiz hurmatini izhor etib, bir voqeani bayon qiladi. Unga ko‘ra, shoh majlislaridan birida bir nuqtadon inson Husayn Boyqaroga: “Navoiyning she‘rlari juda ajoyib, undan bahramand bo‘lgan odam yana bahra olmoqni xohlaydi, lekin bundan ne foyda bor?”, – degan ma‘noda fikr bildiradi. Aslida shoir ko‘pdan buyon fiqh va aqidaga doir asar yozishni niyat qilib yurardi-yu, azbaroyi yumush ko‘pligidan bunga fursat topolmayotgan edi. Samarqanddan bir ulug‘ insonning Hirotga tashrif buyurib, piri murshid Xoja Ahror Valiyning shoirdan diniy masalalar sharhini yorituvchi kitob yozishni so‘raganini aytganidan so‘ng Alisher Navoiy katta ishtiyoq bilan ishga kirishadi:

...Chu so‘rdi Iso anfosi bu damni,

Ham ul dam azmig‘a yo‘ndum qalamni...

Alisher Navoiy “Kitob nazmining sababi” qismida avval aqida sharhini, so‘ng farz, vojib, sunnatni bayon etishini, bundan ahli islomga foyda bo‘lishini aytadi:

<sup>8</sup>A.Navoiy. “Siroj ul-muslimin”. – Toshkent: Fan.2000.- B. 78.

...Ham etkaymen burun sharhi aqoyid,  
 Ki, islom ahlig'a bergay favoyid.  
 Yana ham farz, ham vojib, sunan ham,  
 Neki oriz bo'lur yaxshi, yomon ham...<sup>9</sup>

Asarning asosiy qismida Alisher Navoiy o'zi aytganidek, dastavval aqid hamda shariat hukmlari sharhiga to'xtaladi. Bunda shoir islom ahkomi ikki qism: aqida va amal (shariat)dan iborat deb yozar ekan, aqida pok bo'lmasa, amalning ahamiyati yuqori bo'lmasligini ta'kidlaydi.

Alisher Navoiy iymon shartlari sifatida Allohning bir-u borligiga, farishtalarga, ilohiy kitoblarga, payg'ambarlarga, oxirat kuniga, qadar – taqdirga ishonish kabilarni sanab o'tadi.

Keyingi qismda shoir Allohning sifatlarini bayon etadi. Unga ko'ra, mo'min inson Allohning zamon va makondan munazzah – holi ekaniga, sherigi yo'qligiga, uning bezavol ilmiga, eshitish va ko'rishiga, kalomiga, taqdir egasi ekaniga ishonishi shart. Hazrat Navoiy, shuningdek, Allohning o'xshashi yo'q, uning qudrati har qanday jismdan holi bo'lib, bandalar kabi ehtiyojmand emasdur, degan islom aqidasiidagi fikrni uqtirar ekan, bunga isbot tariqasida "Sho'ro" surasidagi 11-oyatni keltiradi:

«لَيْسَ كَمِثْلِهِ شَيْءٌ وَهُوَ السَّمِيعُ الْبَصِيرُ»

**"U Zotga o'xshash hech narsa yo'qdir. U Zot o'ta eshitguvchi, o'ta ko'rguvchi Zotdir".**

Keyingi bobda shoir islom aqidasiidagi – qabr azobi, qabrdagi savol-javob, sirot ko'prigi, tarozi, do'zax, jannat, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam shifoati, nabiyalar mo'jizalari, avliyolar karomati haq ekanini ta'kidlaydi hamda kohinni tasdiq etish kufr ekanini ham aytib o'tadi.

Islom aqidasi shartlari bayonidan so'ng Alisher Navoiy islom ahkomlarini yoritadi. Bunda shoir islom dini farzlari – tahorat, g'usl, namoz, zakot, ramazon ro'zasi, haj bilan bog'liq shariat hukmlarini batafsil bayon etadi.

Endi muqoyasamizning ikkinchi asosi haqidagi ma'lumotlarga to'xtalamiz.

O'rta osiyolik faqihlarning har biri o'z ilmiy uslubi va yashagan davri sharoitiga qarab islom huquqi, ayniqsa, hanafiy mazhabi rivoji yo'lida unutilmas xizmatlar qilib, o'zlaridan barhayot asarlar qoldirganlar. Ular orasida Burhoniddin Marg'inoniy yozgan qimmatli huquqiy kodeks "Hidoya" o'z ixchamligi, mukammalligi, hanafiy mazhabini boshqa sunniylik mazhablari bilan qiyosiy uslubda o'rganib, har tomonlama yoritganligi uchun o'ziga xos katta nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Burhoniddin Marg'inoniy yozgan to'rt jildlik "Hidoya" kitobi, hanafiy mazhabi bo'yicha, eng muhim va mukammal huquqiy manba sifatida 57 ta kitob, 165 bob, 152 fasldan tarkib topgan bo'lib, meros huquqidan tashqari, furu' al-fiqhning barcha sohalarini qamrab olgan. Burhoniddin Marg'inoniy meros huquqini o'z kitobiga kirgizmaganing sababi, Abu Hanifa rahmatullohi alayh meros

<sup>9</sup> A.Navoiy. "Siroj ul-muslimin". – Toshkent: Fan.2000.- B. 48

muammolarini bir mustaqil fan sifatida fiqh ilmidan ajratib, uni “faroiz ilmi” deb ataganidir<sup>10</sup>.

“Hidoya”ning arabcha matni 4 jilddan iborat bo‘lib, uning har bir jildi shariat nuqtai nazaridan ibodat va ijtimoiy hayotdagi turli xil muammolarning huquqiy yechimiga bag‘ishlangan.

Birinchi jildi 5 kitobdan iborat bo‘lib, tahorat va amaliy ibodatlar: namoz, ro‘za, zakot va hajga bag‘ishlangan. Bu jild 47 bob va 37 fasldan iborat.

Ikkinchi jildga nikoh, emizish, taloq, qullarni ozod qilish, topib olingan bolalarning nasabini aniqlash, topib olingan narsa, qochib ketgan qullar, bedarak yo‘qolganlar va yo‘qolgan buyumlar, sherikchilik shartlari, vaqf huquqi kabi masalalar kiritilgan. Bu jild 60 ta bob, 36 ta fasldan tashkil topgan.

Uchinchi jild 14 ta kitobni o‘zi ichiga oladi. Bular: oldi-sotdi, pul muammolari, kafolat, pulni birovga o‘tkazish, qozilarning vazifalari, guvohlik, berilgan guvohlikdan qaytish, vakolat, da‘vo, iqror bo‘lish, sulh, bir ishda pul bilan sherik bo‘lish, pulni saqlashga berish, qarz berish, sovg‘a, ijara, muayyan shart asosida cheklangan ozodlik berilgan qullar, voliylik (patronat), majbur qilish, homiylik, qisman ozod bo‘lgan qullar va bosqinchilik xususidagi masalalar o‘rin olgan. Bu jildda 36 ta bob, 37 ta fasl bor.

To‘rtinchi jildda esa, shafolat qilish shartlari, merosni taqsimlash, dehqonchilik hamda bog‘dorchilikka doir shartnomalar, qurbonlikka so‘yiladigan jonliqlar haqida, qurbonlik qilish shartlari, shariatga zid keladigan narsalar haqida, tashlandiq yerlarni o‘zlashtirish xususida, taqiqlangan ichimliklar, ovchilik, garovga berish va olish, jinoyatlar, xun haqi to‘lash, vasiyat kabi huquqiy masalalar yoritilgan. Bu jild 23 ta bob, 38 ta fasldan iborat.

“Hidoya”da fiqh ilmiga oid jami 57 ta mavzu bo‘lib, ular alohida bittadan kitobga sarlavha qilib olingan va har bir fiqhiy mavzu, o‘z navbatida, bob va fasllarga bo‘lingan holda o‘rganilgan<sup>11</sup>.

“Hidoya” muallifi nihoyatda muhim va munozarali masalalarni yoritmoqchi bo‘lganda sahobalar, mazhablar asoschilari, buyuk faqihlar ismlari, jo‘g‘rofiy va tarixiy joylar, turli toifa va qabilalar nomlarini zikr etadi. Abdulhay Lakhnaviy o‘z muqaddimasida “Hidoya”ning birinchi qismida zikr etilgan sahobalar va tobein ismlari 50 dan ko‘proq, toifa va urug‘lar nomlari 12 ta, jo‘g‘rofiy va tarixiy joylar nomi 55 ta ekanligini ko‘rsatib, ularning har biri haqida qisqacha ma‘lumot berib o‘tgan. U Marg‘inoniy asarida kelgan 90 dan ortiq buyuk faqihlar, imomlar, mujtahidlar, jumladan, mashhur sahobalar va muhaddislar ismlarini hamda ularga tegishli bo‘lgan ma‘lumotlarni zikr etadi. Bunga binoan, “Hidoya” muallifining ishi qanchalik og‘ir va keng qamrovli ekanligini tushunish qiyin emas.

Burhonuddin Marg‘inoniy “Hidoya” asarining nazariy manbalarini quyidagilar tashkil etadi:

1. Qur‘oni Karim oyatlari;

<sup>10</sup> “Hidoya” asari 1-juz. Burhoniddin Marg‘inoniy – Toshkent: .2022.- B. 18

<sup>11</sup> “Hidoya” asari 1-juz. Burhoniddin Marg‘inoniy – Toshkent: .2022.- B. 18

2. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan rivoyat qilingan hadislar;

3. Dastlabki to'rt xalifa, sahobalar va tobeinlarning rivoyatlari;

4. Ahli sunna val jamoadagi to'rt mazhab asoschilari bo'lmish Abu Hanifa No'mon ibn Sobit, Abu Abdulloh Muhammad ibn Idris Shofe'iy, Molik ibn Anas, Ahmad ibn Hanballarning asarlari va fiqhiy qarashlari.

5. Abu Hanifaning shogird va safdoshlaridan Abu Yusuf, Muhammad va Zufar rahmatullohi alayhlar va boshqa bir qator mashhur faqihlarning asarlari.

Burhoniddin Marg'inoniy "Hidoya" kitobida huquqiy muammolarni yechish jarayonida nafaqat to'rtta asosiy mazhab (Hanafiy, Molikiy, Shofe'iy va Hanbaliy mazhablari), balki Zohiriy va Avzo'iy mazhablariga doir fikr va mulohazalarni ham o'rni kelganda berib o'tgan va har biri haqida o'z nuqtai nazarini bildirgan. "Hidoya" asarining keng ko'lamli nazariy manbalari Marg'inoniyning keng va ko'p qirrali iste'dod va ilm egasi ekanligini yaqqol ko'rsatadi.

Burhonuddin Marg'inoniy "Hidoya" kitobini yozishda o'ziga xos uslub yaratdi. Uning har bir iborasi nihoyatda qisqa va muxtasar, fiqhiy hukmlarni ifodalovchi jummalarning har biri bir umumiy qoida shaklida beriladi. Uning iboralari mo'jaz, ya'ni qisqa va sermazmun, so'zlarining tarkibi puxta, nuqsonsiz bo'lib, sun'iylikdan uzoq. U ko'p zarurat sezmasa, sinonim so'zlardan foydalanmaydi. Hashv va zavoidni (kerak bo'lmagan ortiqcha so'zlarni) ishlatmaydi. Uning yozish uslubi "sahli mumtani" (oson, sodda, lekin uningdek qilib yozish mumkin emas).

Muallif, "Hidoya"ni yozishda o'ziga xos bo'lgan qisqa so'zlar, istilohlar (atamalar) va ixcham iboralarni ishlatadi. Ushbu iboralar "Hidoya" ustidan yozilgan ko'p sharhlar va hoshiyalarda mualliflari tomonidan belgilab berilgan. Mazkur manbalarga asoslanib, Hoji Xalifa (Kotib Chalabiy), Shayx Abdulhaq Dehlaviy va Abdulhay Laknaviy o'z asarlarida ularni izohlab o'tganlar. Ulardan ayrimlari quyidagilardan iborat:<sup>12</sup>

Muallif asarda «رضي الله عنه» (Undan Alloh rozi bo'lsin) desa, o'zini nazarda tutgan. Usmoniy qozisi Abu Su'ud aytadi: "Hidoya" sohibi qachon o'zining so'zini keltirsa, « قال عبد الضعيف عفى الله عنه » (Zaif banda, Alloh uni afv qilsin, aytadi), iborasini keltirgan. Lekin vafotlaridan so'ng ba'zi shogirdlari bu iborani « قال رضي الله عنه » iborasiga o'zgartirganlar<sup>13</sup>.

Demak, muallif manmanlik shubhaga kelishidan saqlanish uchun o'zini birinchi shaxsda zikr qilmagan. Kamtarlik ulug' faqih va muhaddis rohimahullohlarning doimiy odatlari bo'lgan.

Faqih o'zi ixtiyor qilgan mazhab dalillarini eng so'ngida keltiradi. Yana shunday doimiy odatlaridan biri, garchi buyuk faqihlarning so'zlarini sanaganda ko'pincha birinchi bo'lib eng kuchli so'zni keltirsa, ixtilofli so'zlarga dalil keltirgan vaqtda oxiri keltirilgan dalil oldingisiga javob o'rnida bo'lishi uchun eng kuchli so'zning dalilini oxirida keltiradi.

<sup>12</sup> Alisher Navoiy. Siroj- ul Muslimiyn. – Toshkent: Fan.2000.- B. 68

<sup>13</sup> "Hidoya" asari 1-juz. Burhoniddin Marg'inoniy – Toshkent: .2022.- B. 25

Margʻinoniy fiqhiy nuqtai nazardan, huquqiy masalalarni izohlash jarayonida, ularning mashruʻ (qonuniy) yoki nomashruʻ (gʻayriqonuniy) ekanligini naqliy dalillardan keyin, aqliy dalillar bilan yoritib oʻtadi. Ushbu nuqtai nazardan “Hidoya”ni islom huquqi falsafasi va keyingi davrlarda keng rivojlangan “huquq falsafasi” fanining manbalaridan biri deb qabul qilsak, toʻgʻri xulosa chiqargan boʻlamiz. Shunday qilib, Burhoniddin Margʻinoniy yozgan toʻrt jildlik “Hidoya” kitobi sunniylik oqimida hanafiy mazhabi boʻyicha bir muhim va mukammal huquqiy kodeks sifatida 55 dan ortiq kitob, yuzlab bob-u fasldan tarkib topgan boʻlib, meros huquqidan tashqari, islom huquqining barcha sohalarini qamrab oladi.

Yuqorida aytilganidek, “Hidoya” asari bevosita tahoratga oid hukmlar bilan boshlangan boʻlsa, “Siroj ul-muslimin”da aqidaviy masalalardan keyin tahoratning bayoni bilan farʻiy hukmlar bayoni boshlangan:

Tahorat ichra bilkim, toʻrt erur farz,  
 Gar etsang istimoʻ, aylay ani arz.  
 Yu(v)mogʻliq yuzni manglay to zaqandur,  
 Quloqdin to quloq vajhi hasandur.  
 Mahosin boʻlsa onchakim, yopar yuz,  
 Ani gʻusl aylamak, ey niyating tuz.  
 Iki qoʻlni iki tirsak bila yu(v),  
 Vuzu aylarda bilkim, farz erur bu.  
 Yana bosh masʻhini ham farz bilgʻil,  
 Valekin, toʻrt ulushtin birni qilgʻil.  
 Yu(v)mogʻ iki oyogʻni farz erur ham,  
 Iki oshugʻni ham qilmoq anga zam,<sup>14</sup>

Navoiy ushbu 12 misra orqali tahoratning farzlarini bayon qilgan. Yaʼni, yuzni chegaralari bilan: soch chiqqan joydan jagʻ osti va quloqning ikki yumshoq yerlarigacha yuvish, ikki qoʻlni tirsaklari bilan yuvish, boshning toʻrttdan bir qismiga masʻh tortish va oyoqlarni toʻpiqlari bilan yuvishdir. Shuningdek, Hazrati Navoiy mazhablar oʻrtasida xilofga sabab boʻlgan qoʻlning chegarasi, boshning qanchasiga masʻh tortish lozimligi borasidagi masalalarning Hanafiy mazhabidagi yechimini bayon qilgan.

Tahoratning farzlari bayoni “Hidoya”da quyidagicha keladi: **“Alloh taolo: “Ey moʻminlar, namozga turganingizda yuzlaringizni hamda qoʻllaringizni chigʻanoqlarigacha yuvingiz, boshlaringizga masʻh tortingiz va oyoqlaringizni oshiqqlarigacha yuvingiz!”** degan. Demak, tahoratning farzi, mazkur dalilga asosan, uchta aʼzoni yuvish va boshga masʻh tortishdir. Yuvish bu (aʼzoning ustidan) suvni oqizish. Masʻh esa, (suvni aʼzoga) tekkizish, degani. Yuzning chegarasi, soch chiqqan joydan (peshona sochidan) jagʻ osti va quloqning ikki yumshoq yerlarigacha. Chunki yuzlashish shu chegara bilan amalga oshadi va “yuz” soʻzi ham, yuzlashmoq soʻzidan olingan. Bizga koʻra, tirsak va toʻpiqlar, (tahoratda) yuvishga kiradi. Zufar rahmatullohi alayh aks fikrdadir. U kishi: “Chegara chegarasi belgili

<sup>14</sup>Alisher Navoiy. Siroj- ul Muslimiyn. – Toshkent: Fan.2000.- B. 69

narsaning ostiga doxil bo'lmaydi, xuddi ro'za bobida "kecha"ning ro'za (tutish vaqti)ga kirmagani kabi", degan. Bizning dalil shuki, (tahoratdagi) chegara o'zidan keyingi joyni yuvishni soqit qilish uchun kelgan, aks holda yuvish majburiyati qo'lining hamma qismini qamrab olgan bo'lar edi. Ro'za bobida esa, chegara ro'zaning hukmini kechgacha davom ettirish uchun o'rnatilgan. Chunki "sovm"(ro'za) so'zi aslida bir muddat (taom, ichimlik va jinsiy aloqadan) tiyilib turish demakdir. To'piq deganda, bo'rtib chiqqan suyak tushuniladi va bu so'z to'g'ridir. "Ko'ib" (ko'krak) so'zi shu o'zakdan olingan.

Quduriy rahmatullohi alayh aytadi: Boshga mas'h tortishda farz qilingan miqdor peshona miqdoricha. Bu boshning to'rtidan biriga to'g'ri keladi. (Bu hukm) Mug'iyra ibn Sho'ba roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisga ko'ra: "Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bir qavmning axlatxonasiga borib bavl qildilar, tahorat oldilar va peshonalari va mahsilariga mas'h tortdilar". Oyati karimadagi "Mas'h tortinglar", – degan buyruq umumiy bo'lib, hadis unga aniqlik kiritish uchun kelgan. Mazkur hadis Shofe'iy rahmatullohi alayhning "Uch dona sochga mas'h tortish bilan farz ado bo'ladi, degan so'zlariga", hamda Molik rahmatullohi alayhning "Boshning hammasiga mas'h tortish shart", degan so'zlariga hujjatdir. Ba'zi rivoyatlarda, ayrim faqihlarimiz mas'hning miqdorini uch barmoq miqdoricha, deb bilganlar, chunki uchta barmoq mas'h tortishda eng ko'p ishlatiladi".

Guvohi bo'lganimizdek, ikkala asarda ham tahoratning farzlarini bayon qilishda Qur'oni Karimdagi Moida surasi, 6-oyatga tayanilgan:

« يَا أَيُّهَا الَّذِينَ ءَامَنُوا إِذَا قُمْتُمْ إِلَى الصَّلَاةِ فَاغْسِلُوا وُجُوهَكُمْ وَأَيْدِيَكُمْ إِلَى الْمَرَافِقِ وَامْسَحُوا بِرُءُوسِكُمْ وَأَرْجُلَكُمْ إِلَى الْكَعْبَيْنِ »

**"Ey iymon keltirganlar! Namozga turmoqchi bo'lsalaringiz, yuzlaringizni va qo'llaringizni chig'anoqlari ila yuvinglar. Boshlaringizga mas'h tortinglar. Va oyoqlaringizni to'piqlari ila yuvinglar".**

Alloh taoloning O'zi aynan qaysi a'zolari yuvish lozimligini bayon qilgani uchun hech kim bunga ziyoda yoki noqislik, yoki o'zgartirish, yoki oyatdagi a'zolari emas, boshqasini farz sanamaydi. Zero, bunday qilish Allohning hukmiga qarshi chiqishdir. Shu boisdan nafaqat "Siroj ul-muslimin" va "Hidoya"da, balki jamiki fiqh manbalarida tahoratning farzlari bayoni xuddi shundaydir. Biroq, oyatlarni mazhabboshi imomlarimiz o'z ijti-hodlariga ko'ra tushunishgan va shunday tushuntirishgan, bu esa juz'iy xiloflarga sabab bo'lgan. "Siroj ul-muslimin"da faqatgina hanafiy mazhabidagi fatvo berilgani bayon qilingan bo'lsa, "Hidoya"da hanafiy mazhabining ichidagi turli fikrlar bilan birgalikda boshqa mazhablarga raddiyalar ham berib o'tilgan.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Alisher Navoiy / "Siroj ul-muslimin". –T:Fan-2000
2. Imom Buxoriy / "Oltin silsila", 1-juz. –T:Hilol-nashr-2021
3. Ubaydulloh ibn Mas'ud / "Muxtasarul viqo'ya". –T:Movarounnahr-2010
4. Shayx Abdulaziz Mansur / "Qur'oni Karim ma'nolari tarjimai va tafsiri". –T:TIU-2004
5. "Hidoya" asari 1-juz. Burhoniddin Marg'inoniy – Toshkent: 2022